



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA’MURIY ISLOHOTLAR KONSEPSIYASI VA UNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Ahmadova Zebiniso Shavkatovna,
*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro
innovatsiyalar universiteti dotsenti*

Annatatsiya: *Davlat funksiyalarini amalga oshirishda xususiy sektorni jalb qilish bo‘yicha joriy etilayotgan islohotlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati natijadorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.*

Jumladan, 2017-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo‘nalishi belgilandi va maxsusus “Yo‘l xaritasi” asosida 100 dan ortiq davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish belgilandi. Mahalliy hokimliklarning moddiy-texnik ta’mnoti va ularning xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimi qayta ko‘rib chiqilib, mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ularni boshqarish bo‘yicha mahalliy organlarning mustaqilligini amalda ta’minlashga erishildi.

Kalit so‘zlar: *Biznes, loyiha, ta’lim, xo‘jalik boshqaruvi, Vazirlar Mahkamasi, ijtimoiy-iqtisodiy, eksterritorial tamoyil.*

Shuningdek, 2017-yilda tegishli sohalarda to‘planib qolgan muammolarni samarali hal etish maqsadida Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish, Maktabgacha ta’lim hamda Tashqi savdo vazirliklari, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, Hukumat apparati ijro etuvchi tuzilmasi qayta ko‘rib chiqildi va takomillashtirildi. 18 ta vazirlik va idoraning funksiya hamda vazifalari takomillashtirilib, 24 ta davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar qayta tashkil etilgan bo‘lsa, 2018-yilda davlat boshqaruvining 93 ta organi isloh qilindi, 77 ta vazirlik va idora qayta tashkil etildi, 7 tasi tugatildi, 9 tasi yangidan tashkil etildi.

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas’uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni va “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilinib, ularga muvofiq Vazirlar Mahkamasi faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Bosh vazir o‘rinbosarlarining bir vaqtning o‘zida aksiyadorlik jamiyati va kompaniyalari hamda davlat ulushi mavjud boshqa tashkilotlarga rahbarlik qilish amaliyoti bekor qilindi hamda ularning soni optimallashtirildi.

Boshqaruv tizimidagi ma’muriy islohotlar sabab, 2016-yilda tuman (shahar)lar soni 193 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ularning soni 207 taga yetdi. Bugungi kunda, Vazirlar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Mahkamasi tizimida 24 ta vazirlik, 9 ta davlat qo‘mitasi, 4 ta davlat inspeksiyasi, 14 ta agentlik, 5 ta qo‘mita, 6 ta markaz, 2 ta markaziy muassasa, 4 ta inspeksiya, 9 ta uyushma, 10 ta bank, 23 ta kompaniya, 6 ta birlashma, 1 ta fond va 10 dan ortiq boshqa tashkilotlar mavjud bo‘lib, ularning tarkibiy tuzilmalarida 100 dan ortiq tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sohada amalga oshirilgan tub islohotlarning yana biri, bu 2017-yil 12- dekabrda Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilganligidir. Har bir tumanda, mamlakat bo‘yicha jami 205 ta Davlat xizmatlari markazi, olis hududlarda ularning 100 dan ortiq filiallari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, 157 turdag'i

davlat xizmatlarini yashash joyidan qat’i nazar, eksterritorial tamoyil asosida olish imkoniyati yaratilib, fuqarolar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar soni va xizmat ko‘rsatilishi uchun talab etiladigan muddat sezilarli darajada qisqartirildi, sifat va samaradorlik oshirildi.

Xususan, 2017-yilda tadbirkorlarga 120 mingdan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilgan bo‘lsa, bugungi kunda jismoniy va yuridik shaxslarning davlat xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha 26 mlndan ortiq murojaatlari qabul qilingan. Davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga doir 110 dan ortiq qonun hujjatlar iishlab chiqilib, 70 dan ortiq xizmatlar soddalashtirildi. Shuningdek, Davlat xizmatlari ko‘rsatishga oid 80 ga yaqin ma’muriy reglamentlar qabul qilindi. Natijada, talab etiladigan hujjatlar soni 167 tadan 79 taga, xizmat ko‘rsatish muddati esa 499 kundan 271 kunga qisqartirildi. 254 ta Davlat xizmatidan my.gov.uz portalni orqali foydalanish imkoniyati yaratildi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik sub’yektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, ularning ustav fondi, xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalarining ustav fondiga qo‘yilgan talablar kabi qator holatlar optimallashtirildi.

Amalga oshirilgan mazkur sa'y-harakatlar natijasida O‘zbekiston Jahon bankining “Biznesni yuritish” reytingi “biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish” indikatorida 190 ta davlat ichida 8-o‘rinni egalladi.

Davlat xizmatiga kadrlarni tayyorlash va qabul qilish yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Davlat boshqaruvi va xo‘jalik funksiyalarini birga qo‘shib olib borishdan voz kechish hamda davlat xizmati samaradorligini oshirish maqsadida 2019- yil 3- oktyabrdagi Prezident Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil qilindi.

Davlat boshqaruvi sohasida erkin fuqarolik jamiyati barpo etishda davlat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning vositasi sifatida Prezident Xalq va virtual qabulxonalari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoatchilik nazorati institutlari hamda davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari muhim o‘rin egallab kelmoqda.

2017- yildan boshlab faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining barcha hududlardagi Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalari aholi bilan bevosita





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



muloqotni yo‘lga qo‘yib, joylarda yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etish, kamchiliklarni bartaraf qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq-manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlamoqda.

Misol uchun, birgina 2017- yilning o‘zida Virtual va Xalq qabulxonalariga jismoniy va yuridik shaxslardan 1,4 milliondan ortiq murojaat kelib tushgan. 2019- yildan boshlab esa Prezidentning Xalq qabulxonalari muammolarni uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishning faol tizimiga o‘tdi. 2020- yilda Prezident Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga 1,2 millionga yaqin murojaat bo‘lgan. Prezident Xalq qabulxonalari tomonidan kiritilgan axborot va eshitilgan hisobotlar natijasida murojaatlar bilan talab darajasida ishlamagan 752 nafar mas’ul xodim javobgarlikka tortilgan. Xalq qabulxonalariga davlat organlarining faoliyatini o‘rganish, ularga taqdimnomalar kiritish, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarni lavozimidan ozod etishgacha bo‘lgan intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha takliflar kiritish vakolatlari berildi.

Harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekistonda so‘z va axborot erkinligini ta’minlash, axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishning institusional-huquqiy asoslarini shakllantirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, davlat organlari va boshqa tashkilotlar matbuot xizmatlarining jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligini yetarli darajada yo‘lga qo‘yish, axborot sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, mamlakat media-bozorini jadal rivojlantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatining ochiqligini ta’minlash hamda kitob va boshqa bosma mahsulotlar ishlab chiqarish tizimli yo‘lga qo‘yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni
2. Shaxriddinovna, R. O. (2023). O‘ZBEKISTON JAMIYATIDA SOTSIAL TABAQALANISH MUAMMOLARI. MASTERS, 1(1), 79-84.
3. Xaydarov, Z. U., Abdullayev, A. N., Yuldashev, J. A., Qambarov, A. B., Zaynobiddinova, N., Ataxanov, B. T., & Ismoilov, T. I. TAHRIR HAY’ATI.